

Angorlik faol terimchilarga sovg'alar topshirildi



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov "Angor zamini klaster" MChJning Angor tumani "Navshahar" mahallasi hududidagi "Chori Rahmonov" oilaviy pudratining paxta dalasida yig'im-terim jarayonlari bilan tanishdi va terimchilar bilan suhbatlashdi.

Viloyat rahbari terimchilar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirib, terim jarayonlarida jonbozlik ko'rsatayotgan ilg'or terimchilarga sovg'alar - maishiy texnikalar topshirdi.

Shuningdek, viloyat rahbari Muzrabot tumanida ham bo'lib, terim jarayonlarini ko'zdan kechirdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)